O'zbekiston sharoitida davlat moliyasini boshqarish va soliq siyosatini takomillashtirish masalalari D. Pulatov tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda izchil yoritilgan. 2017-yilda chop etilgan ishida muallif davlat budjetining g'aznachilik ijrosini takomillashtirishning metodologik jihatlarini tahlil qilib, fiskal boshqaruv samaradorligini oshirishda analitik modellar zarurligini asoslaydi. Keyingi tadqiqotlarda Pulatov davlat moliyaviy nazorati tizimini rivojlantirish, soliq va fiskal mexanizmlarning investitsion muhitga ta'siri hamda soliq tizimini optimallashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi.

Xususan, 2009-yilda e'lon qilingan ilmiy ishda O'zbekistonda davlat moliyaviy nazoratining rivojlanish muammolari tahlil qilinib, soliq siyosati va nazorat mexanizmlarining iqtisodiy barqarorlikdagi roli ochib beriladi. 2025-yildagi tadqiqotlarda esa investitsion jozibadorlikning oshishi, xalqaro reytinglardagi o'rinlar va soliq siyosati o'rtasidagi bog'liqlik empirik asosda ko'rsatib beriladi. Shuningdek, aksiz soliqlarini birlashtirish zarurati va bu jarayonning fiskal samaradorlikka ta'siri ham alohida tahlil qilinadi.

Makroiqtisodiy barqarorlik va fiskal siyosatning xalqaro reytinglarga ta'siri masalalari D. Pulatov va D. Ugay tomonidan 2023-yilda olib borilgan tadqiqotlarda yoritilgan bo'lib, unda mamlakat risklari va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlangan. Ushbu ilmiy natijalar mikrosimulyatsion modellar yordamida soliq va iqtisodiy siyosat qarorlarini asoslash O'zbekiston sharoitida ham dolzarb va amaliy ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur maqolada mikrosimulyatsiya modellari orqali iqtisodiy siyosat qarorlarining tadbirkorlik subyektlariga ta'sirini tahlil qilish uchun qiyosiy tahlil tadqiqot metodologiyasi qo'llangan. Maqolada turli mikrosimulyatsiya modellari (masalan, MicSim, CBO, SimPaths, ITEP) o'rtasida qiyosiy taqqoslash amalga oshirilgan.

Har bir modelning mohiyati, xususiyatlari va qo'llanilish sohalari alohida tahlil qilingan. Modellarning afzalliklari va kamchiliklari solishtirilgan (masalan, Excel/VBA modellarining soddaligi va cheklanganligi, R/Python modellarining kuchliligi va moslashuvchanligi).

O'zbekiston sharoitiga eng mos keladigan va samarali model variantlari aniqlangan (masalan, ma'lumotlar bazasi keng va dinamik bo'lgan holda Python/R dasturlaridan foydalanish afzalligi).

"Mikrosimulyatsion model" Soliq qo'mitasi ma'lumotlari va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida iqtisodiy parametrlarni tahlil qilish, fiskal siyosat borasidagi qarorlar ta'sirida tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish, baholash va bashoratlashga qaratilgan muayyan dasturiy ta'minotdir.

Mikrosimulyatsiya modellari iqtisodiy siyosat qarorlarining tadbirkorlik subyektlariga ta'sirini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Ushbu yondashuv quyidagi afzalliklarga ega:

- Aniqlik — har bir firma darajasida ta'sirni baholash.
- Dinamiklik — vaqt o'tishi bilan o'zgaruvchanlikni hisobga olish.
- Ko'p omillilik — turli iqtisodiy omillarni bir vaqtda tahlil qilish.
- Prognozlash qobiliyati — turli ssenariylar asosida kelajakni ko'rib chiqish.

Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyatini samarali boshqarish va rivojlantirish uchun mikrosimulyatsiya modellaridan foydalanish zamonaviy iqtisodiy tahlilning muhim vositasi hisoblanadi. Bu modellar raqamli ma'lumotlar (soliq to'lovlari, daromadlar, xarajatlar)ni kiritib simulyatsiya o'tkazish imkoniyatini beradi, shuningdek hisob-kitob va qarorlarning iqtisodiy ta'sirlarini baholaydi.

Mikrosimulyatsion modelda kiritilishi kerak bo'lgan mikro-ma'lumotlar asosan quyidagi turlarga bog'liq:

1. Soliq ma'lumotlari

Tadbirkorlik subyektlarining soliq hisobotlari (foyda solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, ijtimoiy soliqlar va boshqalar). Soliq to'lovlari miqdori, muddati va ularning o'zgarish dinamikasi. Soliq qarzdorligi va soliq to'lanmagan miqdorlar to'g'risidagi ma'lumotlar.

2. Balans (moliyaviy) ma'lumotlar

Moliyaviy hisobotlar (balans, daromad-xarajatlar hisoboti, pul oqimi hisoboti). Aktivlar va passivlar tarkibi, ularning o'zgarishi. Hisob-kitoblardan olinadigan ko'rsatkichlar: kreditorlik va debitorlik qarzlari, mablag'larning manbalari va ularning taqsimoti. Hisobotlar xalqaro moliyaviy hisob standartlariga muvofiq bo'lishi.

3. Cheklangan ma'lumotlar (cheklangan testlar va tahlillar)

Ma'lum saralangan (agregatlashtirilgan) mikro-ma'lumotlar, ya'ni belgilangan turdagi tadbirkorlik subyektlari guruhlari bo'yicha cheklangan ma'lumotlar. Mahalliy va sohaviy chegaralar asosida tanlangan sektorlar va subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlar. Hisobotlardagi kamchiliklar, nomuvofiqliklar, texnik xatolar va ularning ehtimoliy ta'siri.

Bu ma'lumotlar mikrosimulyatsion modelda iqtisodiy qarorlarning ta'sirini aniq va detallashtirish uchun tahlil qilish, soliq siyosati va boshqaruvini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, mikro-ma'lumotlar tuzilmasi va sifati ma'lumot manbalariga (Soliq qo'mitasi, buxgalteriya hisobotlari, moliyaviy audit va boshqalar) hamda model maqsadlariga mos ravishda tanlanishi lozim.



Daromad prognozlari: amaldagi qonunchilikka muvofiq, SQning budjet va iqtisodiy istiqbollari hamda uzoq muddatli budjet istiqbollari uchun tadbirkorlik subyektlari daromadlari va solinadigan soliq prognozlari.

Taqsimot baholari: daromad solig'i va boshqa soliqlarning turli daromad darajalarida soliq to'lovchilar o'rtasida qanday taqsimlanganligi haqidagi baholar.

Makroiqtisodiy tahlillar: budjet va soliq siyosati odamlarning ishlash va tejashga bo'lgan rag'batlariga qanday ta'sir qilishi hamda bu xatti-harakatlar, o'z navbatida, kengroq iqtisodiyotga qanday ta'sir qilishi haqidagi baholar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mikrosimulyatsion modellashirish soliq tizimi qoidalarini soliq to'lovchilarning har bir a'zosiga individual tarzda qo'llash imkonini beradi. Ushbu yondashuv iqtisodiy siyosatning tadbirkorlik subyektlariga ta'sirini chuqur va aniq tahlil qilishda samarali hisoblanadi. Masalan, fiskal siyosatdagi o'zgarishlarni kuzatish jarayonida hukumat tomonidan kichik biznes subyektlari uchun foyda solig'ining kamaytirilishi holati olinadigan bo'lsa, mikrosimulyatsiya modeli orqali bir qator muhim iqtisodiy natijalarni baholash mumkin. Xususan, soliq yangiliklari natijasida tadbirkorlik subyektlarining sof foydasi qanday o'zgarishi, moliyaviy resurslarning qay darajada erkinlashishi hamda daromadlar dinamikasida qanday siljishlar yuz berishi aniqlanadi.

Bundan tashqari, mikrosimulyatsion modellashirish investitsiya qarorlaridagi o'zgarishlarni ham baholash imkonini beradi. Soliq yukining kamayishi tadbirkorlarning yangi texnologiyalarga sarmoya kiritish ehtimolini oshirishi, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilishga bo'lgan rag'batni kuchaytirishi mumkin. Shu bilan birga, bandlik darajasidagi o'zgarishlar, yangi ish o'rinlarining yaratilishi yoki mavjud ish o'rinlarining barqarorligi ham model orqali aniqlanadi. Raqobatbardoshlikning kuchayishi natijasida bozor ulushining kengayishi, tovar va xizmatlarni yanada sifatli va samarali yetkazib berish imkoniyatlari ham mikrosimulyatsiya doirasida tahlil qilinadi.

Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyatini aniqlash jarayonida ularning faoliyat turi, ya'ni ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish yoki savdo sohasi ekanligi, korxona hajmi mikro, kichik yoki o'rta biznes toifasiga mansubligi, shuningdek asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar, jumladan daromad, xarajat va foyda miqdorlari inobatga olinadi. Ushbu ma'lumotlar asosida tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy holati va bozor muhitidagi o'rni aniqlanadi.

Iqtisodiy faoliyatni tahlil qilish bosqichida rentabellik darajasi, soliq yukining moliyaviy natijalarga ta'siri, kredit olish imkoniyatlari hamda foiz stavkalarining biznes rivojiga ta'siri chuqur o'rganiladi. Prognozlash jarayonida esa siyosiy o'zgarishlar, xususan yangi soliq stavkalarining joriy etilishi sharoitida kelajakdagi moliyaviy natijalar baholanadi, bozor talabining o'zgarishiga javoban ishlab chiqarish hajmining dinamikasi aniqlanadi hamda bandlik va ish haqi darajasidagi ehtimoliy o'zgarishlar oldindan prognoz qilinadi.

Mikro darajadagi ma'lumotlarga asoslangan iqtisodiy jarayonlar simulyatsiyasini amalga oshirishda, avvalo, tadqiqot uchun zarur bo'lgan korxona daromadlari, xarajatlari, ishchilar soni, soliq to'lovlari kabi mikro ma'lumotlar to'planadi. Keyin agentlar (tadbirkorlar) xatti-harakatlarini ifodalovchi matematik model tuzilib, QQS stavkasining o'zgarishi, subsidiyalar joriy etilishi, kredit siyosatining yengillashuvi kabi siyosiy ssenariylarda simulyatsiya bajariladi va har bir ssenariy bo'yicha natijalar: foyda, bandlik, investitsiya hajmi va h.k. hisoblanadi. So'ng natijalarni tahlil qilish orqali qaysi siyosat eng samarali ekan, kim yutishi va kim yutqazishi aniqlanadi.

Mikrosimulyatsiya modellarining quyidagi yana bir qancha afzalliklari bor:

- Murakkab soliq tizimidagi o'zaro barcha ta'sirlarni bir vaqtda modellashiradi.
- Individual darajadagi ma'lumotlardan foydalangan holda simulyatsiyalarni amalga oshiradi.
- Soliq tizimidagi gipotetik o'zgarishlar umumiy soliq daromadlari va soliqlarning taqsimlanishiga qanday ta'sir qilishini baholash imkonini beradi.

Modellar aniq va moslashuvchan modellar hisoblanadi. Har bir soliq to'lovchini bir yoki bir nechta mezonlar bo'yicha tasniflash mumkin. Tasniflovchi ma'lumotlar bazasidagi har qanday ma'lumot yoki ma'lumotlar bazasida hisoblanishi mumkin bo'lgan tasniflovchi bo'lishi mumkin. Odatdagi tasniflovchilar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Bizneslar:

- Tarmoq sohasi.
- Hajmi (aktivlar, xodimlar soni).

Jismoniy shaxslar:

- Daromad darajasi.
- Uy xo'jaligi hajmi.
- Yoshi.
- Yashash joyi (shahar yoki viloyat).

Taqsimot tahlili:

– Umumiy soliqning (yoki soliqdagi o'zgarishning) qaysi foizi kvintillar, desillar yoki muayyan soliq to'lovchi guruhlari tomonidan to'lanadi.

G'oliblar va mag'lublar (faqat tushum taxminlari):

– G'oliblar — o'zgarishdan keyin kamroq soliq to'laydigan soliq to'lovchilar.

– Mag'lublar — o'zgarishdan keyin ko'proq soliq to'laydigan soliq to'lovchilar.

Taqsimot va g'olib/mag'lub tahlillari juda muhim:

– Taqsimot va g'olib/mag'lub ko'pincha soliq o'zgarishlarining siyosatini hal qiladi.

– Shuningdek, soliq siyosati uchun eng muhimi (asosan SDS bilan bog'liq holda) qancha soliq yig'ilishi va kimdan soliq yig'ilishi haqidagi ma'lumotlardir, chunki har qanday odil jamiyatda soliq boy aholiden olinib, kambag'al aholiga mablag' sarflash zarur deb hisoblanadi.

Mikrosimulyatsiya modellarining kamchiliklari:

Mikrosimulyatsiya modellari odatda katta va murakkab bo'ladi, ularni qurish ham qimmat, ham ko'p vaqt talab qiladi. Odatda, bunday modelni ishlab chiqish va ishlatish uchun dasturchilar guruhi hamda ilg'or kompyuter dasturlash ko'nikmalari talab etiladi. Boyroq mamlakatlarda modellar deyarli har doim hukumat xodimlari tomonidan quriladi.

Modellarni qurish qiyin bo'lgani sababli, rivojlanayotgan mamlakatlardagi aksariyat SSTlarda ko'pincha model tashqi manbadan (konsultantlar, XMF va h.k.) olinadi va mahalliyashtiriladi.

– Modellar odatda tayyor dasturiy ta'minot emas, har bir model har bir mamlakat uchun maxsus qurilishi kerak.

– Model qurilishi keng doiradagi texnik va kompyuter ko'nikmalarini talab qiladi, hatto asosiy mas'uliyat tashqi konsultantga yuklangan bo'lsa ham, SST rivojlanish jarayonini boshqarishi mumkin bo'lgan bilimlari xodimlarga ega bo'lishi kerak.

– Tashqi manbadan model olish SSTning xodimlarga bo'lgan talabini kamaytiradi, ammo bu talabni butunlay yo'q qilmaydi.

Mikrosimulyatsiya modelining bir qator tayyor yoki standart turlari mavjud. Ularning ba'zilari quyidagi xususiyatlarga ega (1-jadval):

1-jadval. Iqtisodiy siyosatni baholashda qo'llaniladigan asosiy mikrosimulyatsion modellar va ularning funksional xususiyatlari¹

Model nomi	Model mohiyati	Xususiyatlari
MicSim (R package)	R tilida ochiq kodli mikrosimulyatsiya paketi, soliq va ijtimoiy siyosati modellari uchun mo'ljallangan	Uzluksiz vaqtda simulyatsiya, ko'p yadroli ishlash, random son generatsiyasini boshqarish imkoniyati, raqamli kirish parametrlari bilan ishlash
CBO Mikrosimulyatsion Soliq Modeli (Tax Microsimulation model)	AQSH Kongressi byudjet idorasi tomonidan ishlab chiqilgan soliq siyosati modellashtiruvchisi	Soliq tizimi qoidalari asosida individlarning soliq salmog'ini prognoz qilish, soliq kirimlarini va taqsimotini aniqlash
SimPaths	Yashash davomiyligi, mehnat, oila, salomatlik sohalari uchun dinamik mikrosimulyatsion model	Soliq va ijtimoiy transfertlar bilan bog'liq ta'sirlarni hisobga olish, ochiq kodli, multimodel qo'llab-quvvatlanadi
ITEP Mikrosimulyatsion Soliq Modeli (Tax Microsimulation Model)	Qo'llanishda sodda, raqamli kirishlar bilan soliq va iste'mol analizi uchun	Soliq yuklamasini va daromad taqsimotini modellash, AQSH uchun moslangan

Mikrosimulyatsiya modelini hukumat xodimlari tomonidan ichki ishlab chiqish varianti sifatida ishlab chiqish mumkin, lekin bunda alohida xodimlar — bitta dasturchilar guruhi va bitta soliq tahlilchilari guruhi bo'lishi lozim. Talab qilinadigan keng ko'lamli kompyuter ishlari tahlilchilar tomonidan emas, balki dasturchilar tomonidan bajariladi. Har bir xodimlar guruhi o'zaro to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yish orqali samarali modelni yaratib, maxsus ko'nikmalarni rivojlantirishi mumkin.

Shuningdek, SSTda ham kompyuter dasturlash, ham soliq tahlili bilimini o'zlashtirgan xodim bo'lsa, unda soliq bilan bog'liq bo'lmagan kompyuter ishlariga ko'p vaqt sarflashlariga to'g'ri kelsa-da, samarali modelni ishlab chiqish imkoni bo'ladi. Bunday xodimlar tahliliy ehtiyojlarga tezroq javob berish va modelning aniqligini ta'minlashga yordam beradi. Ammo ikkala (tahliliy va dasturlash) vazifani bajaradigan ayni shaxsni topish qiyindir. Qisqasi, bunday modelni ishlab chiqish va uni ishlatish uchun samarali jamoa ishi muhimdir.

1 Muallif ishlanmasi



Agar tashqi manbadan maxsus qurilgan tayyor model olinadigan bo'lsa ham, baribir modelga texnik xizmat ko'rsatish, uni o'zgartirish va ishlatish bilan bog'liq holda alohida yoki birlashtirilgan ko'nikmalar va vazifalarga ega xodimlarni tanlash zarurati yuzaga keladi.

Model yaratishda dasturiy ta'minotni tanlash. O'nlab, ehtimol yuzlab dasturiy ta'minotlar mavjud, ideal tanlov yo'q. Ammo ba'zi dasturlash tillari boshqalariga qaraganda yaxshiroq ishlaydi. Mikrosimulyatsiya modellari odatda umumiy maqsadli dasturlash tillarida yoziladi:

C/C++, C#, FORTRAN, Java, Python, R, VB.NET, Visual Basic va boshqalar. Shuningdek, "ilovalar"dan (masalan, Stata, SAS, MATLAB) foydalanish mumkin. SQL esa ma'lumotlar bazasini boshqarish uchun yaxshi tanlov hisoblanadi.

Excelda mikrosimulyatsiya modelini yaratish. O'rta hajmdagi mikrosimulyatsiya modellari Excelda Visual Basic for Applications (VBA) dan foydalanish orqali muvaffaqiyatli yozilishi mumkin. Mavjud XMFning O'zbekiston KDS bo'yicha simulyatsiya modeli Excel/VBA da yozilgan bo'lib, uni o'rganish nisbatan oson, kirish va chiqish jarayonlari jadval ko'rinishida hamda qabul qilinadigan tezlikni ta'minlaydi. Biroq mazkur modelni Excelda yaratishda bir nechta kamchiliklar mavjud. Jumladan, faqat ilg'or VBA usullaridan foydalanish muhim, murakkab ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish esa qo'shimcha dasturiy ta'minotni talab qilishi mumkin. Excel boshqa tillar kabi kuchli emas hamda unda xavfsizlikni ta'minlash va "Elektron ma'lumot ayirboshlash bazasi"ga integratsiyalash nisbatan qiyinroq.

Excelda tadbirkorlik faoliyatida foydani quyidagi oddiy matematik model orqali ifodalash mumkin:

$$\text{Foyda} = (P \cdot Q) - (C \cdot Q) - T + S$$

Bunda:

P — mahsulot narxi.

Q — mahsulot miqdori (ishlab chiqarilgan birliklar).

C — bir birlik uchun xarajat.

T — soliq miqdori.

S — subsidiyalar yoki imtiyozlar.

Ssenariy 1. Soliq stavkasi 12%dan 10%ga o'zgarishini bitta kichik tadbirkorlik subyekti misolida hisoblab ko'ramiz.

Misol. Faraz qilaylik, firmaning:

Brutto daromadi — 500 mln so'm.

Xarajatlari — 300 mln so'm.

Soliq stavkasi — 12% → 10%, ya'ni soliq yuki 2%ga yengillashtirilganda, firma sof foydasining o'zgarishini hisoblaymiz.

Hisoblash,

12% bilan:

$$\text{Soliq: } 500 \text{ mln} \times 12\% = 60 \text{ mln}$$

$$\text{Sof foyda: } 500 - 300 - 60 = 140 \text{ mln}$$

10% bilan:

$$\text{Soliq: } 500 \text{ mln} \times 10\% = 50 \text{ mln}$$

$$\text{Sof foyda: } 500 - 300 - 50 = 150 \text{ mln}$$

Demak, soliq stavkasining 2% ga tushishi, foydani 10mln (7.14%)ga o'sishiga sabab bo'ladi.

$$(150-140)/140 \times 100 = 7.14\%$$

Agar foydaning 60% qismi mehnatga yo'naltirilsa: $7.14\% \times 0.6 = 4.28\%$ Ishchilar soni yoki ish haqi (yoki ikkalasi) o'rtacha 4.28% ga oshishi mumkin. Soliq stavkasini 2% ga yoki 5% ga kamaytirilganda, foyda va mehnatga yo'naltirilgan sarmoyaning o'zgarishi quyidagi jadvalda aks ettirilgan (2-jadval).

2-jadval. SDS soliq stavkasi o'zgarishining sof foyda, mehnatga yo'naltirilgan o'sish va bandlik ko'rsatkichlariga ta'siri²

SDS soliq stavkasi	Sof foyda o'zgarishi	Mehnatga yo'naltirilgan o'sish	Ishchilar soni/ish haki o'zgarishi
12% → 10%	+7.14%	+4.28%	+4.28%
15% → 10%	+14.7%	+8.82%	+8.82%

Ssenariy 2: Daromad solig'ining 2% ga kamaytirilishi tadbirkorlik subyektlarida ishchilar soni va ish haqi o'rtacha 4–5% ga oshishiga olib kelishi mumkin, agar foyda mehnatga yo'naltirilsa.

Daromad solig'ining 5% ga kamaytirilishi esa tadbirkorlik subyektlarida ishchilar soni yoki ish haqi o'rtacha 8–9% ga oshishiga olib kelishi mumkin, agar foyda mehnatga yo'naltirilsa. Xuddi shuningdek, quyidagi yana 2ta ssenariylar asosida firmaning iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilamiz.

Ssenariy 3: Kredit foizlarining pasayishi misolida: Kredit foizlarining 5% ga kamayishi tadbirkorlik subektlarining foydasini 2-3% ga oshishiga olib keladi (kredit imtiyozlari subsidiyalar ko'rinishida bo'lishi mumkin), ya'ni soliq solinadigan baza oshadi, pirovardida byudjet tushumi ortadi.

Ssenariy 4: Energiya narxining 200% ga oshishi, foydani kamayishiga, ba'zan ishlab chiqarishni qisqarishiga sabab bo'lishi mumkin.

Eslatma: yuqoridagi barcha ssenariylarda faqatgina bitta parametr o'zgarib, qolgan boshqa parametrlar o'zgarmay qolganda kalkulyatsiya qilingan (*Ceteris paribus*).

Modelning ilmiy va amaliy ahamiyat shundaki, model ilmiy jihatdan yanada yaxshiroq mikroiqtisodiy tahlil qilishga imkon yaratadi. Amaliy jihatdan esa, soliq siyosatidagi islohotlarning ta'sirini oldindan baholash imkonini beradi.

Modelni Soliq qo'mitasining o'zaro ma'lumot ayirboshlash tizimi bazasiga integratsiyalasha oladigan murakkabroq dasturiy tillar asosida yaratish va avtomatlashtirish orqali 2025-yilda O'zbekistondagi soliq-budjet siyosatidagi o'zgarishlar hamda ularning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sirini tahliliy sharhlash katta ahamiyatga ega.

O'tgan davr mobaynida soliq tizimida elektron hisob-faktura, raqamli markirovka, onlayn kassa mashinalari va keshbek tizimlari joriy etilishi natijasida yashirin iqtisodiyot ulushi sezilarli darajada qisqardi. Soliq tushumlari 2025-yilning 9 oyida 158,7 trln so'mni tashkil etdi, bu o'tgan yilga nisbatan 18 % ga ko'pdir.

Raqamlashtirish va to'lov yukini kamaytirish, to'lov jarayonini soddalashtirish hamda osonlashtirish tufayli ko'plab korxonalar Yldan chiqib, rasmiy faoliyatga o'tmoqda.

Sun'iy intellekt, nashriyot, yoshlar sohasi va kambag'al oilalar uchun soliq yengilliklari joriy etilishi ijtimoiy inklyuzivlikni kuchaytiradi, soliq bazasining kengayishiga hamda pirovardida budjet tushumlari miqdorining oshishiga sabab bo'ladi.

Ceteris paribus lotincha "barcha boshqa narsalar teng" degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiyotda u bitta o'zgaruvchining ta'sirini tahlil qilishda boshqa barcha potensial chalkashtiruvchi omillar doimiy, o'zgarmas bo'lib qolishini taxmin qilish orqali hisoblashda ishlatiladi. Iqtisodchilar undan foydalanishining sababi shundaki, nazorat ostidagi tajribalar iqtisodiyotda kam uchraydi va ko'pincha amaliy emas. Qiziqish mexanizmini ajratib ko'rsatish uchun nazariyotchilar boshqa ta'sirlarni hisobga olmasdan, haqiqatni soddalashtiradilar. Bu yangi g'oya yoki siyosatning asosiy oqibatlarini nazariy jihatdan namoyish qilishni osonlashtiradi.

Real dunyo ma'lumotlari chalkashtiruvchi omillarni o'z ichiga oladi (masalan, regressiyada ayrim o'zgaruvchilar qoldirib ketilganda). Ularni e'tiborsiz qoldirish noxolis va nomuvofiq taxminlarga olib keladi. Noto'g'ri *ceteris paribus* taxminlariga asoslangan siyosat tavsiyalari noto'g'ri yoki chalg'ituvchi bo'lishi mumkin. Mikrosimulyatsiya o'zaro ta'sirlar va institutsional cheklovlarni modellashtirishga imkon beradi hamda shaxslar va muassasalar ma'lumotlarini to'g'ridan to'g'ri modellashtirishda murakkablikni olib tashlash o'rniga uni saqlab qoladi. Shu orqali barcha ma'lumotlar bir vaqtning o'zida o'zgargan sharoitda natijalarni tahlil qilish va iqtisodiy qarorlarning ta'sirini aniqroq ifodalashga yordam beradi.

O'zbekistonda mikrosimulyatsion modellar asosan oliy ta'lim muassasalarida akademik darajada qo'llanilmoqda, amaliyotda esa keng ko'lamlı davlat dasturlarida hali joriy etilmagan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mikrosimulyatsion modellar — bu zamonaviy iqtisodiy tahlilning muhim vositasi bo'lib, soliq va fiskal siyosat qarorlarining mikro darajadagi ta'sirini aniq va dinamik tarzda baholash imkonini beradi. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida mikrosimulyatsion modellarni joriy etish va rivojlantirish nafaqat soliq tushumlarini prognozlash va boshqarish, balki tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini rag'batlantirish, ish o'rinlarini ko'paytirish va yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda samarali vosita bo'lishi mumkin.

Soliq siyosatidagi o'zgarishlar (masalan, soliq stavkalarining pasayishi, kredit imtiyozlari, subsidiyalar) to'g'ridan-to'g'ri tadbirkorlarning sof foydasi, investitsiya qarorlari, bandlik darajasi va bozor raqobatbardoshligiga ta'sir ko'rsatadi. Mikrosimulyatsion yondashuv ushbu ta'sirlarni individual firma yoki jismoniy shaxs darajasida aniq modellashtirish, turli siyosat ssenariylarini solishtirish va ularning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini oldindan ko'rib chiqish imkoniyatini yaratadi.

O'zbekistonda soliq tizimining raqamlashtirilishi, elektron hisob-faktura, raqamli markirovka va onlayn kassa tizimlarining joriy etilishi mikrosimulyatsion modellar uchun zarur bo'lgan aniq va ishonchli mikro-ma'lumotlar bazasini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Soliq ma'lumotlari, moliyaviy hisobotlar va sektorli statistik ma'lumotlarning integratsiyasi orqali yanada real va moslashuvchan modellar yaratish imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga, mikrosimulyatsion modellarni yaratish va qo'llashda bir qator qiyinchiliklar mavjud: yuqori texnik va dasturiy talablar, malakali kadrlar yetishmasligi, ma'lumotlar sifatini ta'minlash zarurati va modelni muntazam yangilab turish ehtiyoji. Biroq ushbu muammolar ichki va tashqi hamkorlik, xalqaro tajribani o'rganish hamda malakali mutaxassislarni tayyorlash orqali bartaraf etilishi mumkin.



Tavsiyalar:

1. Modelni amaliyotga joriy etish — Raqamlashtirish vazirligi, Soliq qo'mitasi va Budget-soliq ilmiy tadqiqot instituti hamkorligida mikrosimulyatsion modelning pilot versiyasini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish.
2. Malakali kadrlarni tayyorlash — dasturlash, iqtisodiy tahlil va soliq qonunchiligi sohalarida integratsiyalashgan malakaga ega mutaxassislarni tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish.
3. Ma'lumotlar bazasini takomillashtirish — soliq, statistika va moliyaviy hisobot ma'lumotlarini birlashtiruvchi yagona raqamli platformani yaratish va modelni unga integratsiyalash.
4. Xalqaro tajribani o'rganish — XMF, Jahon banki va rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish, ammo mahalliy iqtisodiy sharoitga moslashtirish.
5. Modelni doimiy yangilash — iqtisodiy sharoitlar va qonunchilik o'zgarishlarini aks ettirish uchun modelni dinamik ravishda yangilab borish.
6. Ochiq va shaffof tahlil — model natijalarini hukumat, tadbirkorlar va jamoatchilik uchun tushunarli va ochiq tarzda taqdim etish.

Xulosa qilib aytganda, mikrosimulyatsion modellarni O'zbekiston soliq-budjet tizimiga tatbiq etish nafaqat qisqa muddatli budjet tushumlarini optimallashtirish, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sish, ijtimoiy adolat va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Ushbu yondashuv iqtisodiy siyosatni ilmiy asoslash, qarorlarning muddat va sifat jihatidan samaradorligini oshirish hamda O'zbekiston iqtisodiyotini raqamli transformatsiya qilish yo'lida yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Xalqaro Monetar Fondi (IMF). (2023). Microsimulation Models for Tax Policy Analysis: A Practical Guide.
2. Impact of trade policy liberalization on chemical industry: case study of Uzbekistan. <https://www.mup.cz/data/files/IFRS-2022-preliminary-programme.pdf>
3. Soliq Qo'mitasi. (2024). O'zbekiston soliq tizimi statistikasi va hisobotlari.
4. Bourguignon, F., & Spadaro, A. (2006). Microsimulation as a tool for evaluating redistribution policies. *Journal of Economic Inequality*, 4(1), 77-106.
5. Mercer, W. M. (2022). Tax Microsimulation Modeling: Applications in Developing Economies. World Bank Publications.
6. CBO (Congressional Budget Office). (2020). The CBO Microsimulation Tax Model: Overview and Applications.
7. ITEP (Institute on Taxation and Economic Policy). (2021). ITEP Tax Microsimulation Model: Technical Documentation.
8. R Development Core Team. (2023). MicSim: An R Package for Continuous-Time Microsimulation. *Journal of Statistical Software*, 55(8), 1-28.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2024). Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish dasturi.
10. Soliq kodeksi. (2023). O'zbekiston Respublikasi.
11. World Bank. (2023). Digitalization and Tax Compliance: Lessons from Uzbekistan.
12. Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot standartlari. (2022). Xalqaro moliyaviy hisob standartlari (IFRS) va ularning qo'llanilishi.
13. Anders Klevmarken Microsimulation. A Tool for Economic Analysis Working Paper 2001:13, Department of Economics, Uppsala University
14. Пулатов Д. Методологические аспекты совершенствования казначейского исполнения Государственного бюджета Республики Узбекистан //Каталог авторефератов. – 2017. – Т. 1. – №. 1. – С. 1-65.
15. Dilshod, Pulatov. Issues in development of state financial control in Uzbekistan. *Perspectives of Innovations, Economics and Business*. 2. 10.15208/pieb.2009.16. (2009)
16. Dilshod, Pulatov. O'zbekistonda Investitsion Jozibadorlikning ortib borishi jahon miqyosida joriy etilayotgan Business Reday" reytingidagi baholash natijalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda //Muhandislik va Iqtisodiyot. – 2025. – Т. 3. – №. 11.
17. Пулатов Д. и др. Необходимость Объединения акцизного налога на нефтепродукты в Республике Узбекистан // Muhandislik va Iqtisodiyot. – 2025. – Т. 3. – №. 10.
18. Пулатов Д. Х., Угай Д. С. Выявление взаимосвязи между страновым риском и макроэкономическими параметрами с целью улучшения позиции Узбекистана в кредитном рейтинге ОЭСР //Science and innovation. – 2023. – Т. 2. – №. Special Issue 13. – С. 151-155

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100